

Toshkent davlat agrar universiteti
rektorining
2024-yil 25-sentabr dagi
13-61382-sonli buyrug'iga
2-ilova

**Toshkent davlat agrar universiteti talabalarining yotoqxonada yashash
shart-sharoitlarni doimiy o'r ganib borish, ularning xavfsizligini
ta'minlashga qaratilgan choralar ni amalga oshirish maqsadida
talabalar turar joylarining yangi
ICHKI TARTIB QOIDALARI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur qoidalar Talabalar turar joyi (keyingi o'rnlarda – TTJ deb yuritiladi)da o'zaro muloqot madaniyatini hamda sog'lom ma'naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish hamda rivojlantirish, shuningdek, TTJda yashashni, jihozlardan, umumiy foydalanish joylaridan foydalanishni, TTJda talaba va talabalarining huquq va majburiyatlarini, TTJga kirish-chiqishni tartibga solish maqsadida, Universitet barcha xodim va talabalarini tomonidan TTJ hududida rioya etishlari shart bo'lgan ichki-tartib qoidalarini belgilaydi.

2. Mazkur qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

xodim - belgilangan yosha yetgan hamda Universitet bilan mehnat shartnomasi tuzgan fuqaro;

navbatchi - navbatchilik jadvaliga muvofiq navbatchilikni o'tkazuvchi professor-o'qituvchi, pedagog va boshqa xodim;

talaba - Universitetga talabalikka qabul qilingan fuqaro, TTJda yashayotgan Universitet talabasi;

TTJga talabalar ni joylashtirish bo'yicha komissiya – talabalar ni ijtimoiy himoya qilish, ularning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash, yashash sharoitidan doimiy xabardor bo'lib turish hamda TTJga joylashtirishda ijtimoiy adolat, tenglik, insonparvarlik va oshkorali kti ni ta'minlash maqsadida har o'quv yili boshida Universitet rektori buyrug'i bilan tuzilgan komissiya.

2-bob. TTJdan joy va jihozlarni olish va qaytarish tartibi

3. TTJga talabalar ni joylashtirish har o'quv yili boshida TTJga talabalar ni joylashtirish bo'yicha komissiya (keyingi o'rnlarda – komissiya deb yuritiladi) qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Komissiya qarori bayon bilan rasmiylashtiriladi.

Komissiyaga lavozimi bo'yicha Universitet Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori raislik qiladi.

TTJda yashashga ruxsat olish uchun talabalar ariza bilan komissiyaga murojaat etadi.

Komissiya o‘z faoliyatini bir o‘quv yili davomida amalga oshiradi. Komissiya talabalarni TTJda yashashi uchun ruxsat berish (rad etish) masalasini ko‘rib chiqadi. Komissiya o‘z faoliyatida ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib quyidagi toifadagi talabalar ustuvorlik asosida talabalar turar joylariga qabul qilinadi:

«Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilar, yetim va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talabalar;

«Ijtimoiy himoya yagona reestri», «Temir daftari» va «Ayollar daftari»ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari hamda «Yoshlar daftari»da turadigan talabalar;

I va II guruh nogironligi bo‘lgan talabalar;

bir oiladan bakalavriat bosqichi kunduzgi ta’lim shaklida ikki yoki undan ortiq to‘lov-shartnomasi asosida o‘qiyotgan oilalar farzandlari;

xalqaro fan olimpiadalar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan respublika fan olimpiadalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan talabalar;

«Yil talabasi» va «Talabalar teatr studiyalari» ko‘rik-tanlovlaringning respublika bosqichi g‘olibi bo‘lgan talabalar;

oliy ta’lim muassasalari talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan «Zakovat» intellektual o‘yining respublika bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan talabalar;

talabalar turar joyida talabalar kengashi raisi, qavat sardori bo‘lgan talabalar.

Komissiya qaroriga ko‘ra, TTJda yashashiga ruxsat berilgan talabalar tomonidan joy va jihozlar olishi, umumiy foydalanish joylaridan foydalanishi uchun Universitet bilan o‘zaro shartnomasi tuziladi.

TTJda yashashga ruxsat berish to‘g‘risidagi komissiya qarori talaba o‘qishini tugatgunga qadar amal qiladi. Agar talaba TTJ ichki tartib-qoidalari yoxud boshqa talablarni buzsa, shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lovlarni amalga oshirmsa, u bilan tuzilgan shartnomasi bekor qilinadi va talaba TTJdan chiqarib yuboriladi.

4. Talaba bilan shartnomasi tuzilgach, TTJ mudiri joy va jihozlarni taqdim qiladi hamda ushbu qoidalar bilan tanishtiradi.

5. TTJda yashashga ruxsat berilganidan so‘ng talabaning TTJdagisi yashashi, jamoat ishlarida faolligi va h.k. holatlar doimiy monitoring qilinadi.

O‘quv yili oxirida olib borilgan monitoring natijasi muhokama qilinadi hamda Universitet va TTJ mudiri tomonidan talaba bilan tuzilgan shartnomalarni uzaytirish yoki uzaytirmaslik masalasini ko‘rib chiqadi va talabaga e’lon qiladi.

6. TTJdan joy va jihozlar olishda qonunda belgilangan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, shu jumladan chin yetim, yetim, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi, nogiron, boquvchisini yo‘qotgan, kam ta’minlangan talabalar ustunlik huquqiga ega bo‘ladi.

7. TTJda yashash uchun olinadigan haq miqdori Universitet ilmiy Kengashi tomonidan belgilanadi va Universitet buyrug‘i qabul qilinadi.

8. Shartnomasi muddati tugaganidan so‘ng talaba TTJ mudiriga xona va jihozlarni but, toza va ozoda holda qaytaradi. Talaba, shuningdek o‘qishni tugatgach yoki talabalar safidan chetlashtirilgan, akademik ta’til olgan hollarda uch kun muddatda, shuningdek turar joyidan uzoq muddatga ketishdan oldin (yozgi va qishki ta’til, dam olish, amaliyot) jihozlarni va xona kalitini TTJ mudiriga qaytarib topshirishlari shart.

9. Talabalar shaxsiy mulkdan foydalanishi maxsus qayd etish to‘g‘risidagi hujjat orqali amalga oshiriladi va ularning saqlanishini ta‘minlash foydalanishga olgan shaxs zimmasiga yuklatiladi.

3-bob. TTJ yashash xonalari, umumiy foydalanish joylaridagi tartibi

11. TTJ yashash xonalari, umumiy foydalanish joylari (hojatxona, yuvinish xonasi, oshxona va boshqa joylar)da sanitariya-gigiena talablari ta‘minlanishi shart.

12. TTJda talabalar yashash xonasi, jihozlar, umumiy foydalanish joylari butligi, toza va ozodaligini saqlashlari lozim.

13. TTJ binosi atrofi, xonalar, umumiy foydalanish joylarida jamoat tartibini saqlash, tozalikni ta‘minlash maqsadida talabalar orasidan navbatchilik tashkil qilinadi.

4-bob. TTJga kirish-chiqish tartibi

14. TTJga talabaning kirishi va chiqishi maxsus guvohnoma asosida amalga oshiriladi.

15. TTJda talabalarga yozgi vaqtida kech soat 22:00 va qishki vaqtida kech soat 21:00 gacha TTJga kirishiga ruxsat beriladi. Darsdan bo‘s sh vaqtarda turli tashkilotlarda ishlaydigan, turli tadbirlarda ishtiroy etadigan talabalarning ro‘yxati TTJ mudiri va Pedagog-tarbiyachi tomonidan tuziladi va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi.

16. TTJga kelgan mehmonlar, ota-onalar va qarindoshlar talabalarning kirish-chiqishiga faqat TTJ mudir yoki navbatchi shaxsni tasdiqlovchi hujjat orqali ma’lum vaqtga qadar ruxsat berishi mumkin.

17. TTJga boshqa joydan kelganlar haqidagi ma’lumotlar (kelish va ketish vaqt, pasport (shaxsini tasdiqlovchi hujjat) ma’lumotlari, xona raqami ko‘rsatilgan holda) tegishli jurnalga yozib qo‘yiladi va ularning turar joyidan soat 20:00 gacha chiqib ketishi qat’iy nazorat ostida bo‘lishi shart. Ularning o‘z vaqtida TTJdan chiqib ketishini ta‘minlash taklif qilgan talaba zimmasiga yuklatiladi.

18. Universitet talabasi, shuningdek, TTJda yashamaydigan begona shaxslar tomonidan TTJ xonasidan foydalanishga ruxsat berish yoki imkoniyat yaratish mazkur qoidalarni qo‘pol ravishda buzish sanaladi va bunday shaxsga nisbatan tegishli intizomiy javobgarlik chorasi qo‘llaniladi.

19. TTJ qorovuli va boshqa xodimlar TTJ atrof hududlarida shubhali kishilar va buyumlarni ko‘rib yoki sezib qolganlarida, zudlik bilan ichki ishlар organlari yoki tegishli tashkilotlar hamda Universitet rahbariyatiga xabar berishlari lozim.

20. TTJ qorovuli tashqi va ichki telefon tarmoq bilan ta‘minlanishi va uning stolida tez yordam, ichki ishlар organlari, yong‘in xavfsizligi, elektr, gaz tarmoqlari, hokimiyat, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, rektor, prorektorlar, fakultet dekanlari, TTJ mudirining ish, uy va mobil telefon raqamlari bo‘lishi shart.

21. TTJdan buyumlar, jihozlarni olib chiqib ketilishiga faqat tegishli tartibda rasmiylashtirilgan buxgalteriya hujjati asosida ruxsat beriladi (tegishli tartibda qayd qilingan shaxsiy buyumlar bundan mustasno).

5-bob. TTJda talabalarining huquq va majburiyatları

22. TTJda talabalar quyidagi huquqlardan foydalanadilar:

o‘ziga ajratilgan xonada o‘rnatilgan ichki-tartib-qoidalariga rioya qilgan holda yashash;

TTJ binolaridagi madaniy-maishiy jihozlardan foydalanish;

foydalanishga yaroqsiz holga kelgan jihoz, mebel va boshqa buyumlarni sozlashni, yangilash hamda maishiy xizmatlardan foydalanishda yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishni so‘rab murojaat qilish;

TTJda o‘tqaziladigan ommaviy-madaniy, sport va tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etish;

yaratilgan shart-sharoitlar bo‘yicha Universitet rahbariyatiga takliflar bilan chiqish;

Talabalar kengashining a’zolarini saylash hamda unga saylanish;

Talabalar kengashi orqali TTJning maishiy ta’mintoni takomillashtirish, tarbiyaviy ishlarni va madaniy hordiqni tashkil etish, yashash xonalarini jihozlash bo‘yicha masalalarni hal etishda ishtirok etish.

23. TTJda talabalar quyidagi majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi:

mazkur qoidalarga qat’iy amal qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrdagi 1049-son qarorining 4-ilovasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini propiska qilganlik va propiskadan chiqarganlik uchun, shuningdek, turgan joyi bo‘yicha hisobga qo‘yish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 2 foizi miqdorida to‘lovlarni amalgalashirish;

“Talabalar turar joyidan xona (joy) va jihozlar berish” bo‘yicha universitet bilan tuzilgan shartnomaning barcha bandlariga qat’iy rioya qilish;

navbatchilik jadvaliga binoan yashash xonalarida, qavatlarda, umumiylashtirilgan joylari (hojatxona, yuvinish xonasi, oshxona va boshqa joylar)da navbatchilik qilish;

umumiylashtirilgan joylari, yashash xonalarini hamda dam olish joylarida namunali tozalikni tashkil etish, undagi jihozlardan to‘g‘ri va unumli foydalanish;

gaz, elektr jihozlaridan hamda isitish tizimidan foydalanish qoidalariga qat’iy rioya qilish va ulardan oqilona foydalanish;

TTJdan uzoq muddatga ketayotib (yozgi va qishki ta’til, dam olish, amaliyat, akademik ta’til olgan hollar), TTJ mudirini ikki kun oldin yozma ravishda ogohlantirib qo‘yish;

kundalik ehtiyojga ega bo‘lmagan katta hajmdagi shaxsiy va qimmatbaxo buyumlarni va katta miqdordagi pul mablag‘larini TTJ mudiriga yoki buyumlar saqlash xonasiga topshirish;

yashab turgan xonasi va boshqa umumiyl foydalanish joylarini har doim toza va tartibli tutish;

TTJda talabalar bilan doimo samimiyl, ahil munosabatda bo‘lish;

TTJdag‘i mavjud barcha jihozlarni namunali darajada tutish;

umumiyl foydalanish joylariga o‘rnatilgan yoritgichlar, elektr va gaz plitalarini buzmaslik, yuvinish xonasi, oshxona hamda ma’naviyat va ma’rifat xonalaridan to‘g‘ri foydalanish;

TTJda o‘tkaziladigan obodonlashtirish va tevarak-atroflarni ko‘kalamzorlashtirish ishlarida muntazam ravishda faol qatnashish;

TTJ mol-mulkidan to‘g‘ri va unumli foydalanish va zarar yetkazmaslik;

o‘qishni tugatgach yoki talabalar safidan chetlashtirilgan, akademik ta’til olgan hollarda uch kun muddatda, shuningdek TTJdan uzoq muddatga ketishdan oldin ariza yozib (yozgi va qishki ta’til, dam olish, amaliyat) jihozlarni va xona kalitini soz holatda TTJ mudiriga topshirish.

24. TTJda talabalarga quyidagilar qat’iyan man etiladi:

derazadan chiqindi va boshqa narsalarni tashlash;

eshik qulflarini TTJ mudiri ruxsatisiz almashtirish;

yashash xonasida kiyimlarni yuvish, energiya tarmoqlari (o‘tqazgichlar)ni o‘z xohshicha o‘zgartirish, ularga ulanish va qo‘srimcha yoritgich o‘rnatish;

yashash xonasida orgtexnika jihozlari, jumladan nusxa ko‘chirish, rangli va rangsiz printer hamda turli nashriyot asbob-uskunalarini ishlatish (noutbuk, planshetlar bundan mustasno);

xona devorlari ko‘rinishini o‘zgartirish, ovoz chiqaruvchi qurilmalar ovozini va boshqa ovozlarni xona tashqarisidan eshitilishiga yo‘l qo‘yish va musiqa asboblarini chalish;

xavfli va yong‘in chiqarishi mumkin bo‘lgan moddalar, tegishli tekshiruvdan o‘tmagan uskunalardan foydalanish yoki saqlash;

TTJ mudiri yoki navbatchi ruxsatisiz begona shaxslarni xonada bo‘lishiga yo‘l qo‘yish, xona kalitlarini begona shaxslarga berish, o‘zboshimchalik bilan yashash xonalarini o‘zgartirish;

uy (yovvoyi) hayvonlarini saqlash;

TTJga tegishli kompyuter, kabel tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan yoki tegishli ruxsatsiz ularish;

yashash xonasida boshqa shaxslarga xalaqit beradigan yirik ashyolarni saqlash;

TTJ hududida mast holatda bo‘lish, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, giyohvand hamda psixotrop moddalar saqlash yoki iste’mol qilish.

6-bob. TTJ mudirining huquq va majburiyatları

25. TTJ mudiri quyidagi huquqlarga ega:

TTJ hayotida faol ishtirok etayotgan xulqi namunali talabalarni rag‘batlantirish bo‘yicha Universitet rahbariyatiga taklif kiritish;

favqulodda vaziyatlarda, xona kalitlari o‘z vaqtida topshirilmagan holatlarda xonalar qulflarini ochish;

TTJda belgilangan tartib va qoidalar talaba tomonidan buzilganida yoki majburiyatlar bajarilmaganda o‘rnatilgan tartibda jazo choralarini ko‘rish bo‘yicha Universitet rahbariyatiga taklif kiritish.

26. TTJ mudirining majburiyatları:

belgilangan tartibda xona va jihozlarni o‘z vaqtida talabaga foydalanishga berish;

talabalarning yashash xonalari toza va ozodaligini nazorat qilish va yashash sharoitlarini muntazam ravishda tekshirib turish;

TTJda yashash sharoitlarini yaxshilash hamda joriy va kapital ta’mirlash bo‘yicha choralar ko‘rish;

talabaga berilgan jihozlarning yaroqligini doimiy nazorat kilish;

tarbiyaviy, madaniy hamda sport-sog‘lomlashtirish tadbirlarni tashkil etish; -yong‘in xavfsizligi va jamoat tartibi saqlanishini ta’minalash;

to‘sak anjomlarini o‘z vaqtida almashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

TTJ har bir xonalari sanitariya-gigiena holatini, shu jumladan gigiena xonalari (hojatxona, hammom, oshxona va x.k.)ni, mavjud santechnika qurilmalari, issiqlik, gaz, elektr ta’mnoti tizimlari holatini talab darajasida bo‘lishini ta’minalash;

TTJ energiya ta’mnoti tizimidagi buzilishlarni tezkor bartaraf etish choralarini ko‘rish;

kommunal xizmatlarda uzilishlar ro‘y berganda va boshqa avariya hamda favqulodda holatlarda tegishli tezkor choralar ko‘rish, shuningdek Universitet rahbariyatini xabardor qilish;

huquqbuzarliklarni oldini olish, talabalar bilan suhbat hamda tegishli tushuntirishlar o‘tkazish, zaruratga ko‘ra maslahatlar tashkil etish;

TTJga keluvchilarini nazorat qilish;

mazkur qoidalariga rioya qilinishini ta’minalash majburiyatini oladi.

27. TTJning xavfsiz faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish, talabalar xavfsizligini uzlusiz ravishda ta’minalash, yoshlari bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, Universitet xodimlari va talabalari o‘rtasida o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantirish, barcha talabalar tomonidan TTJ to‘g‘risida Nizom, mazkur qoidalar va Universitet odob-axloq kodeksi hamda ichki-tartib qoidalariga rioya qilishni ta’minalash uchun TTJ binolarida professor-o‘qituvchilar va boshqa xodimlardan iborat navbatchilik joriy qilinadi. Navbatchilikni o‘tash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7-bob. Yakuniy qoidalari

28. Mazkur qoidalarni buzgan talabalarga quyidagi javobgarlik choralari qo'llanilishi mumkin:

hayfsan e'lon qilish;
TTJdan chiqarib yuborish;
talabalar safidan chetlashtirish.

29. Ushbu qoidalarni buzgan TTJda talabalarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan boshqa javobgarlik choralar ham qo'llanilishi mumkin.,